

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.M.Maniyozov	
Inson-jamiat-innoiya dialektikasining ijtimoiy-falsafiy tahlili	206
Sh.Nazarova	
The portrayal of modern women in Bahmanyor's <i>Shahanshah</i> : a comparative analysis of urban and rural femininity in tajik literature	212
F.X.Utayeva	
Buxoroda tashkil etilgan yengil sanoat tarmoqlarining tarixi	215
J.Xusanov	
Kitobxonlikni yoshlar ma'naviyatga ta'siri	220
O.M.Karimov	
Mehnat erkinligi va inson qadr-qimmati tushunchalarining aksiologik tahlili	224
R.J.Soxibov	
Yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning metodologik aspektlari	228
X.S.Qosimov	
Yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	231
Sh.O'.Maxmudov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning estetik madaniyatini oshirishda musiqa ta'limi omilining ijtimoiy-falsafiy masalalari	234
M.A.Nuruddinov	
Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy zaruriyati	237



UO'K: 172.15:316.347-053.6(575.1)

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUXIDA TARBİYALASHNING IJTIMOY-FALSAFIY ZARURIYATI

SOCIAL-PHILOSOPHICAL NECESSITY OF EDUCATING YOUTH IN A SPIRIT OF PATRIOTISM

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА

Nuruddinov Mirsaid Abdumannonovich 

Farg'ona davlat texnika universiteti, "Ijtimoiy fanlar va sport" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya

O'zbek milliy ta'lim tizimi ham ilg'or tajribalarni qabul qilish bilan birga ming yil-lar davomida shakllangan sharqona usullardan voz ham kechmadi. Sharq, xususan, o'zbek ta'lim tizimida yoshlar tarbiyasi, axloqi, vatanparvarligi, mehnatsevarligi, ijodkorligi, inson-parvarligi kabi sifatlarga azaldan alohida e'tibor qaratilgan. Maqola yoshlar tarbiyasi-ning muhim jihati - vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi dolzarb muammoga bag'ishlangan.

Abstract

The Uzbek national education system, while adopting best practices, has not abandoned the oriental methods that have been formed over thousands of years. In the East, in particular, in the Uzbek education system, special attention always has been paid to such qualities as the upbringing of young people, morality, patriotism, diligence, creativity, humanity.

Аннотация

Узбекская национальная система образования, перенимая передовой опыт, не отказалась от восточных методов, которые формировались тысячелетиями. На Востоке, в частности, в системе образования Узбекистана особое внимание всегда уделялось таким качествам, как воспитание молодежи, нравственность, патриотизм, трудолюбие, творчество, гуманность. Статья посвящена актуальному аспекту воспитания молодежи – проблеме воспитания в духе патриотизма.

Kalit so'zlar: Vatan, vatanparvarlik, yoshlar, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabat, ilm, milliy qadriyatlar.

Key words: Motherland, patriotism, youth, high morals, spirituality and enlightenment, conscientious attitude to work, science, national values

Ключевые слова: Родина, патриотизм, молодежь, высокая нравственность, духовность и просвещение, сознательное отношение к труду, наука, национальные ценности.

KIRISH

XX asrning so'nggi va XXI asrning yigirma yilida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tufayli millatning asriy orzusi demokratiya, ozodlik, erkinlik, farovon va osoyishta turmush tarzini chuqur anglash fursati yetdi. Xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, o'z taqdirini o'zi belgilab, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shuningdek, taraqqiyparvar davlatlar tajribasini ijo-diy o'rganib yuksak intilishlar bilan yashay boshladi. Bularning barchasi adabiy ta'lim-ning maqsadini ham o'zgartirdi — endi bosh maqsad bolalarni ezgu qadriyatlar asosida bilimli, yuqori salohiyatli, vatani va xalqiga sodiq, jismonan sog'lom, teran va mustaqil fikrlovchi shaxs etib tarbiyalashdir.

So'nggi yillarda bu borada qator qarorlar qabul qilindi. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ekanligi belgilab qo'yildi. Kengashning hududiy bo'limlariga mas'ullik hokimlar zimmasiga yuklatildi. Bu o'zgarish ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davla-timiz siyosatida yanada yuksak o'ringa ko'tardi. Davlat rahbari 2021 yilning 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda, **"Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir, ... Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor**

tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi– ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatidir",- dedi [1]¹.

TADQIQOT MAQSADI

Shuning uchun ham bugungi O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishining asosiy tamoyil tarzida ***“o'quvchi yoshlarni vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash”*** alohida ta'kidlangan [2, 214].

Mazkur tamoyil asosida milliy ta'lim tizimi va pedagogik-metodik sohalarda jadal o'zgarishlar, shiddatli yangilanishlar yuz berdi. Mavjud darslik, qo'llanma va dasturlar zamon talablariga moslashtirilib, bosqichma-bosqich iste'molga chiqarilmoqda. Zamonaviy dars tushunchasi yangitdan sayqallandi. O'quvchilardan itoatkorlik, o'qituvchining har bir gapini yodlab olish talab etilmay qo'yildi. Endi har bir maktab(ning istagan) o'quvchisi o'zining shaxsiy fikri va uni himoya qilish huquqiga egaligini, o'qituvchi diktator emas, ilmga yo'l ko'rsatuvchi yo'llovchi (etaklovchi) ekanini biladi. Berilgan imtiyoz va huquqlar suiiste'mol qilinmasligi uchun o'qituvchilar chuqur bilim va lider-yetakchilik xususiyatlari bilan qurollanishlari lozim. Zotan, ***“Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur”*** [3, 369].

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Pedagogika nuqtai nazaridan qaraganda, mavzu yuzasidan milliy ta'lim tizimi va pedagogik-metodik yo'nalishlar doira-sida ko'plab ilmiy izlanishlar, fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ayni muammo faqat O'zbekistonda emas balki o'z kelajagiga befarq bo'lmagan xorij mamlakatlarida ham tizimli o'rganilgan va jiddiy tadqiqot ishlari dunyo yuzini ko'rgan. Respublikamizda va xorijda nashr etilgan ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili ta'lim jarayonining dolzarb yo'nalishlari bo'yicha qator ilmiy ishlar olib borilayotganini ko'rsatdi. Jumladan, R.Djuraev, R.Ahlidinov, J.Yo'ldoshev, E.G'oziev, Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, M.Mirqosimov, U.Inoyatov, O.Musurmonova, M.Saidov, L.Peregudov, Yu.Vasilev, T.Davidenko, M.Potashnik, V.Simonov, P.Tretyakov, V.Arnautov, V.Monaxov, B.Vulfov, V.Ivanov, V.Bespalko, V.Guzeev, S.Islamgulova, M.Mirqosimova, M.Klarin, I.Podlasiy, N.Saidahmedov, M.Quronov, B.To'xlijev, N.Komilov, I.Haqqul, Q.Yo'ldoshev, Q.Husanboeva, B. Ziyomuhamedov, O'.Tolipov, M.Usmonboeva, U.Dolimov va shu kabi olimlar ta'limni boshqarish qonuniyatlari, uning davlat va shaxs ehtiyoji hamda manfaatlarini qondirishda tutgan o'zni, jamiyat rivojiga bog'liq talablari, barkamol shaxs tarbiyalash usullarini tadqiq etishgan.

TADQIQOT OBYEKTI

O'zbekiston ta'lim tizimi pedagogikasida adabiyot o'qitish muhim, ijodkor yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hatto asosiy yumush sanalib, bu muammoning bosqichma-bosqich tizimli rivojlanib borishini kafolatlaydi.

Tadqiqotning usullari.

Nazariy adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, tushunchalarga ta'rif berish, kuzatish va suhbat, chog'ishtirish, qiyosiy tahlil orqali dalillash kabi shaxsning mantiqiy tafakkur, mustaqil fikr va ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ilmiy mohiyat.

Zotan, ***“... inson aqliy va jismoniy jihatdan qanchalik yetuk bo'lsa ham, undagi bilim axloq normalariga mos bo'lmasa, u kishi jamiyatning haqiqiy a'zosi bo'la olmaydi”*** [4,57]. Axloqiy me'yorlar esa ada-biyot vositasida vujudga keladi. Bunga badiiy adabiyotdagi obrazli tafakkur tarzi imkon beradi. Shu sohalarda mamlakatimiz taraqqiyotning yuksak ma'rifiy-madaniy jamiyat sari yetaklovchi, kelajagi buyuk davlatni bunyod qilish yo'lini tanlagani bois ta'lim tizimiga e'ti-bor va talab kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zotan, ajdodlar tanlagan yo'lni milliy g'ururga ega, barkamol, vatanparvar avlodlar-gina davom ettira olishadi.

ASOSIY QISM

Yangi O'zbekiston ravnaqi, kelajak strategiyasi haqida fikr yuritilar ekan, butun respublika ta'lim tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Pedagoglar bu islohotlar taqdim etgan axborot kommu-nikativ va ilg'or o'quv texnologiyalari, modul-lashtirilgan hamda zamonaviy ta'lim usullari yordamida yoshlarni ma'naviy-axloqiy takomillashtirish, chuqur fuqarolik tuyg'usini shakllantirish, yot mafkuraviy ta'sirlardan himoyalovchi g'oyaviy immunitet hosil qilish va o'qitish samaradorligini ta'minlashdan iborat. Shu bois yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularda vatani va eli bilan faxrlanish, himoyasiga shay turish tuyg'usini rivojlantirishda adabiy ta'limning o'zni beqiyos. Mazkur

ILMIY AXBOROT

holat hamda shiddatli axborot oqimi tufayli yoshlarimizda xorij mamlakatlari turmush tarziga intilish, taqlid qilish, milliylikdan uzoqlashish, davlatlararo yadroviy emas, mafkuraviy kurash olib borilayotgani uzluksiz adabiy ta'lim tizimining asosiy sub'ekti — o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash yo'sinlarini ilmiy- pedagogik muammo sifatida tadqiq etish dolzarb ekanligini belgilaydi.

Mamlakatimizdagi UO'TM, ayniqsa ijod maktablarining yuqori sinflari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta'lim oluvchilariga **“zamona ilmi va fani”**ni singdirishda adabiyot darslari muhim o'rin tutadi.

O'zbek milliy ta'lim tizimi ham ilg'or tajribalarni qabul qilish bilan birga ming yillar davomida shakllangan sharqona usullardan voz ham kechmadi. Sharq, xususan, o'zbek ta'lim tizimida yoshlar tarbiyasi, axloqi, vatanparvarligi, mehnatsevarligi, insonparvarligi kabi sifatlarga azaldan alohida e'tibor qaratilgan. Chunki, bolalar muhabbatiga ega bo'lmagan va tabiatan ixtisoslashmagan o'qituvchining baqirib-chaqirishi bolalarni «o'ldirishi», tarbiya aynan o'quv faoliyati bilan bog'langan holda darsda boshlanishi va o'sha yerda tugashi olib borayotgan ilmiy tadqiqotimiz mobaynida ayonlashdi. O'qitish jarayoniga texnologik befarq yondashilsa, o'qituvchi layoqatsiz bo'lsa yoki tarbiyalash maqsadida o'z imkoniyatlarini vaqtida, o'rinli ishga solmasa, bola, ehtimol, fanni o'ziga kerakli jihatiga ko'ra qisman o'zlashtirishi mumkindir, biroq bu holat mamlakat milliy xavfsizligiga tahdid soladi.

Adabiy ta'lim davlatning ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy hodisadir. Mamlakatdagi ta'lim maskanlari muvaffaqiyat va farovonlik timsoli bo'lish barobarida kelajak vorislarini yaxshi amallar sari yetaklaydi. Taniqli siyosatchi Fran-sua Mitteran ta'lim maskanini **“jamiyatni harakatlantiruvchi kuch”** deb hisoblaganda juda haq edi.

Binobarin, mustaqil jamiyatimizni harakatga keltiradigan, biz ko'zlagan manzilga eltadigan ta'lim maskanlari ijtimoiy hayotdagi eng kichik o'zgarishni ham sezadi va unga munosabat bildiradi. Ijtimoiy tafakkur yangilangani ta'lim tizimini o'zgartiradi, bu esa o'z navbatida, yana ijtimoiy tafakkurga ta'sirini o'tkazadi. Shu kabi ildizini aniqlash mushkul ta'sir tufayli adabiy ta'limning mazmuni o'zgardi. Ilgari amal qilgan tamoyillar, mezonlar iste'molga yaramay qoldi. O'zbek adabiyotini davrlashtirish tayanadigan asoslar (yitgach) eskirgach, yangilarini joriy etish zarurati tug'ildi. Professor Q.Yo'ldoshev adabiy davrlarni, yangi o'zbek adabiyotining ildizi, asosiy belgilari va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, bu atamaning qo'llanish chegarasini belgilash barobarida juda muhim bo'lgan quyidagi to'rt bosqichni ko'rsatib o'tadi:

1. O'zbek ma'rifatchilik adabiyoti.
2. O'zbek jadid adabiyoti.
3. Sho'ro davri o'zbek adabiyoti.
4. Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti.

Bu o'rinda yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalarini, albatta, hisobga olish lozimligini ta'kidlashni istardik.

Ma'lumki, o'tgan asrda adabiyotning vazifasi, ijtimoiyligi mudom evrilishda bo'ldi. XIX asrning 60-yillarida o'zbek adabiyotida estetik an'analar o'zgardi, badiiy ijod ruhiyat qirralarini aks ettirish, komillik sifatlarini ulug'lash, ma'shuqa azoblarini tasvirlashdangina iborat bo'lmay qoldi. Muallif yana XIX asr ikkinchi yarmidan adabiyot tirikchilik yumushlariga aralashib, ijtimoiy-siyosiy ta'sir vositasiga aylangani, publitsistik ruh kasb eta boshlagani haqida so'zlab, oddiy odamlar ham badiiy qahramonga aylangani, adabiyotga o'zgacha ruh, bo'lakcha muammo, yangicha hayot tarzi kirib kelgani, bunday yo'sin badiiy til ifodasida tub islohotlar bo'lishini yuzaga keltirmay qolmasligini aytadi.

Hozirgi kunimizda ham 1920 yillarda yuz bergan jarayon kabi holat ro'y bermoqda. Adabiyot va uni o'qitish borasidagi pedagogikaning maqsadi, vazifasi butkul o'zgardi. Ilgari tuzumning sodiq, buyruqni o'ylamay so'zsiz, bajaradigan kadr yetishtirish kerak bo'lgan umumiy ta'lim endilikda o'quvchiga bilimlarning zaruriy hajmini berishi bilan birga unda mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordamlashadi va kasbga dastlabki yo'nalish beradi.

Ma'lumki, ta'limning individual, raqiblik hamda hamkorlik kabi uch turi mavjud. Individual ta'lim yordamida pedagog tarbiyalanuvchining qalbiga, ruhiyatiga to'g'ri ta'sir etadi. Sog'lom raqobat yordamida o'quvchining shaxsiy va ilmiy sifatla-rini kamolga yetkazadi. Hamkorlikdagi ta'lim o'quvchini o'qitish yoki tarbiyalashdan ko'ra, uni o'qiydigan, tarbiyalanadigan holatga keltiradi. Bunda

har bir o'quvchi o'z ustida tinim-siz ishlay oladi, o'zini o'zi tahlil qilib, muvaffaqiyat va nuqsonlaridan xulosa chiqaradi.

“Axloq – bu xulqlar majmui. Xulq esa ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va olijano-blikning yoki razillik va badbinlik-ning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo'linadilar. Lekin bular kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug'ilishdan yomon bo'lib tug'ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi... Tarbiya tug'ilgan kundan boshlanadi va umrning oxiriga qadar davom etadi. U ikki bosqichdan – uy va maktab tarbiyasidan tashkil topgan”.

Ta'limning turli tizimlarida o'qitish metodikasini modernizatsiyalash, milliy pedagogikamizning bor imkoniyatlarini vatanparvarlikka yo'naltirish zarur. Shu ehtiyoj yuzasidan 1988 yildan to 2007 yilgacha bo'lgan davr oralig'ida adabiy ta'limning UO'MKHT bosqichlari uchun o'ndan ortiq dasturlar e'lon qilindi. Biroq bu choralar bir yoqlama ekanligi, faqat shu bilangina adabiy ta'lim mazmunini o'zgartirib bo'lmashligi, bugungi kun talablari doirasida ayon bo'ldi. Adabiy ta'lim konsepsiyasi, davlat ta'lim standarti, zamonaviy talablar asosi-dagi darslik, o'quv qo'llanmalarining yaratilishi shu anglash mahsulidir. Ammo ularni talabga to'la javob beradigan o'quv vositalari deyish mushkul. Dastur va darsliklar tahlili ularda asrlar davomida qadrlab kelingan insoniy fazilatlar, xususan, vatanparvarlik, xalqparvarlik kabi qadriyatlarni asrash va shakllantirishga undovchi materiallar, aniqrog'i, badiiy matnlar ko'ngildagidek emasligi ko'rinadi. Fikrimizcha, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan badiiy asarlarni qayta saralash lozim. Asarlar tayangan ma'naviy va nazariy asoslar sog'lom aqlga, haqiqiy san'atning tabiati hamda milliy qadriyatlar tizimiga muvofiq bo'lgandagina ilmiy ahamiyat, amaliy qimmatga ega bo'ladi.

AMALIY TAKLIFLAR

Yoshlarda ma'naviy tuyg'ularni uyg'otish va barqarorlashtirish vakolati yoki vazifasi faqat maktabning zimmasidagina emas. Bola oila, bog'cha, mahalla, qarindosh-urug' va tanish-bilishlararo munosabatlar jarayonlarida ham tarbiyalanadi. Shu bois ta'lim tizimida ko'p qo'llangan **“Butun hayot davomida ta'lim”** ifodasi **“Barcha hayot tarzi orqali ta'lim”** ifodasi bilan almashtirildi. Darhaqiqat, tarbiya-ta'lim turmush-ning barcha jabhalarida, inson umrining oxi-rigacha davom etadi. Shunga qaramay, UO'TM, ijod maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va ulardagi adabiy ta'limning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rnini kamsitib bo'lmaydi.

Bu muassasalar adabiy ta'limi muvaffaqiyatida:

- o'qitish o'quvchining turli xil qabul qilish jihatlariga samarali ta'sir etadigan bo'lishi;
- o'quvchilar ular oldiga qo'yilgan vazi-falar bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lishlari;
- yangiliklar bilan tanishtirish, murakkabliklarini soddalashtirib berish yo'llari;

deduksiya bilan induksiyaning amalda birlashtirib qo'llash kabi omillarga bog'liqdir. Mazkur omillar o'qitishning tezkorligi va kafolatini ham belgilaydi. Pedagogika, jumladan, adabiyot o'qitish metodikasi ijodkor bolalarni rivojlani-shining kelajak istiqbolini quyidagilarda ko'radi:

- o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish;
- o'qitishni differentsiatsiyalash (farqlash, ajratish); predmetlar va aniq metodlarni integratsiyalash (uyg'unlashtirish); o'qitish saviyasini hozirgi zamon fani va madaniyati saviyasiga yaqinlashtirish; o'qitishning yangi shakllarini izlash; darslarini loyihalashtirish; dasturga mos dars-larning yangi texnologiyasi hamda texnologik xaritasining yaratishni ko'zda tutadi. Adabiy ta'limini takomillashtirish esa, olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimiz asosida o'quvchilarda quyidagilarga erishishni ta'minlaydi:

– badiiy adabiyot o'qishga qiziqishini rivojlantiradi;

– ta'lim bosqichlarida o'qituvchi e'tibori badiiy asarning o'quvchiga ma'naviy, estetik va hissiy ta'sir etishiga qaratadi;

o'quvchida go'zallikni his etishini shakllantirish orqali ongli munosabat va mustaqil fikr egasini tarbiyalashga xizmat qiladi;

– adabiyotga ijodiy, individual yondashuvni shakllantirish kompetensiyasi rivojlanadi;

– maqsadli ta'limning turli bosqichlaridagi bunday yondashuvlar adabiyot o'qitish borasidagi tizimli aloqani mustahkamlaydi.

Ana shunday yumushlarni amalga oshi-rish barobarida shiddatli ilmiy-texnik inqiloblar zamonida muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan yangi avlod kadrlarini yetish-tirish, yoshlarni bunyodkor, vatanparvarlik kabi umrboqiy g'oyalar bilan to'yintirilgan ta'lim orqali kasb-hunarga

ILMIY AXBOROT

yo'naltirish, adabiy ta'limni ilg'or pedagogik vosita-lar bilan ta'minlash, maktabda tashabbus va ijodga keng yo'l ochish, ularga muvofiq tizimlarni yaratish kabi zarur omillarni yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotla-rining hamkorligini kuchaytirish masalalari. - Toshkent. "Yangi O'zbekiston" 2021 yil 19 yanvar.
2. Azbarov Yu.T. Bolalarni sevis san'ati. – T.: "O'qituvchi", 1991. – 138 b.
3. Azizxodjaeva N.N. Инновационные и образовательные технологии в подготовке педагогических кадров // Халқ таълими. – Тошкент, 2001. - №4.– С.123-126.
4. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
5. Активные формы преподавания литературы. Лекции и семинары на уроках в старших классах (составитель: Р.И. Альбеткова). – М.: "Просвещение", 1991. – 175 с.
6. Al Buxoriy Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. –Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. – 560 b.
7. Aledova R.Sh. Amir Temurning ma'rifiy-tarbiyaviy qarashlari: Ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2006. – 23 b.
8. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Ma'naviyat, 2000. – 630 b.
9. Aliev A. Pedagogik madaniyat: metod va mahorat qirralari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2007. - № 5 – B. 23-27 b.
10. Aliqulov X. Gumanistik meros va shaxs ma'naviy kamoloti. – Toshkent: Ma'na-viyat, 2006. – 56 b.